



ISHEMIK INSULTDAN KEYINGI RUHIY BUZILISHLAR.

G'ulomqodirov Muzaffar Maxmit o'g'li

*Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot, Nevrologiya va psixiatriya kafedrası katta
o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi, Farg'ona shahar*

Kirish. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotiga ko'ra, insult – miya qon-tomirlarining turli sabablarga ko'ra ishemiyasi yoki trombotik hodisa oqibatida yuzaga keladigan, kamida 24 dan ortiq nevrologik simptomlar bilan kechadigan patologiya hisoblanadi. Ishemik insult nafaqat nevrologik simptomlar, balki keng ko'lamli psixopatologik o'zgarishlarga ham sabab bo'lishi mumkin. Insultdan keyingi davrda depressiya, tashvish buzilishi, kognitiv pasayish, affektiv labillik, apatiya kabi ruhiy buzilishlar bemorning reabilitatsiya jarayonini sekinlashtiradi, hayot sifatini pasaytiradi va qayta insult xavfini oshiradi. Shu bois, neyropsixologik monitoring insultdan keyingi kompleks davolashning muhim qismiga aylanmoqda. Insult global miqyosda nogironlikning uchinchi va o'limning ikkinchi katta sababi sanaladi.

Mavzuning dolzarbligi. Xususan, O'zbekiston sog'liqni saqlash statistikasi va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda O'zbekistonda insult oqibatida 21 534 nafar kishi vafot etgan – bu mamlakatdagi jami o'limlarning 13,34 foizini tashkil qiladi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda insultdan aziyat chekuvchi bemorlar orasida o'rta yosh va yoshlar sonining oshayotgani kuzatilmoqda: taxminan 25 foiz insult holatlari 65 yoshdan kichik bemorlarda qayd etiladi. Ishemik insultdan keyingi davrda bemorlarning ruhiy salomatligiga e'tibor qaratish dolzarb masalaga aylanmoqda. Masalan, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, insultdan keyingi depressiya va xavotir har biri bemorlarning uchdan birida (ya'ni taxminan 33 foizda) aniqlanmoqda. Bu ko'rsatkichlar – istalgan reabilitatsiya va qo'llab-quvvatlash ishlarini tashkil etishda muhim hisoblanadi, chunki depressiya va xavotir kamdan-kam hollarda mustaqil o'z-o'zidan tiklanishga olib keladi.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqot maqsadi– o'rta yosh guruhiga mansub ishemik insultdan aziyat chekuvchi bemorlar misolida insultdan keyingi yuzaga keladigan ruhiy buzilishlarni ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilib, ularning tarqalish xususiyatlarini aniqlash va umumlashtirishdan iborat.



Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqot materiali sifatida O'zbekiston va xorij mamlakatlari sog'liqni saqlash statistikasi, ilmiy tibbiyot jurnallaridagi maqolalar, monografiyalar va ko'p mintaqali tadqiqotlar natijalari asosida boshlangan ma'lumotlar olingan. Analitik va tavsifiy usullar yordamida bu ma'lumotlar umumlashtirildi.

Xulosa. Bemorlarda ishemik insultdan keyingi ruhiy buzilishlar tez-tez uchraydigan holat bo'lib, ular bemorlarning sog'lig'i va hayot darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, insult keyini depressiya va xavotir holatlari bemorlarning uchdan birida kuzatiladi, apatiya va psixologik tiklanishni susaytiruvchi boshqa holatlar ham taxminan uchdan birida uchraydi. Pseudobulyar affekt va travmatik stress kabi buzilishlar ham kamdan-kam bo'lsa-da, patologik holatlarni keltirib chiqaradi. Bu holatlarni yengishda psixoterapevtik yordam, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va reabilitatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Shu asosda, sog'liqni saqlash tizimida insultdan so'ng ruhiy kasalliklarni erta aniqlash va davolash imkoniyatlarini kengaytirish, bemorlarni muntazam psixologik kuzatib borish zarurligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, mazkur mavzuda qo'shimcha ilmiy tadqiqotlar olib borish va statistika ma'lumotlarini kengroq jamlash orqali o'rganilayotgan masalaning to'liqligini ta'minlash talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Гуломкодилов, М. (2023). ДЛИТЕЛЬНЫЕ СТАДИИ ПОЗДНЕЙ ШИЗОФРЕНИИ РЕМИТТИРУЮЩЕГО ТИПА. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(19), 349-355.
2. Muzaffar, G. (2023). Features of Reactive Psychosis in Schizophrenia. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(1), 44-49.
3. Muzaffar, G. (2023). Modern Concepts About Schizophrenia. *Eurasian Medical Research Periodical*, 16, 37-41.
4. Гуломкодилов, М., & Машрапов, Ж. (2022). Эмпирический поиск взаимосвязи когнитивного функционирования и общеклинической картины у больных шизофренией. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 1(5), 221-223.
5. Долимова, М. А., Аграновский, М. Л., Солиев, Д. М., & Гуломкодилов, М. М. (2022). Роль поддерживающей терапии в сравнительной эффективности качества и структуры ремиссий при рецидивной шизофрении. *Искусство медицины. Международный медицинский научный журнал*, 2(1).
6. Аграновский, М. Л., Гуломкодилов, М. М., Далимова, С. А., & Муминов, Р. К. (2022). Анализ данных отдалённого катамнеза при шизофрении с ремиттирующим типом течения. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 285-288.



7. Аграновский, М. Л., Гуломқодиров, М. М., Муминов, Р. К., & Далимова, С. А. (2022). Отдаленный этап шизофрении с ремиттирующим типом течения и расстройств шизофренического спектра. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 289-292.
8. Гуломқодиров, М. (2021). Юрак-қон томир касалликлардаги депрессия холатини ташхислаш ва даволашни такомиллаштириш. *Интернаука*, (17-4), 61-62.
9. Гуломқодиров, М. (2021). Афъюнга қарамлик хосил булиш динамикаси ва хусусиятлари. *Интернаука*, (20-7), 23-25.
10. Muzaffar, G. U. (2024). IJOBIY VA SALBIY SINDROMLAR SHKALASI (PANSS). *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(2), 147-149.
11. Muzaffar, G. U. (2024). NICOTINTHERAPY. *IMRAS*, 7(1), 798-799.
12. Maxmit o'g, G. U. M. (2023). APATIK DEPRESSIYA: TUZILISHI VA DINAMIKASI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(24), 226-229.
13. Музаффар, Г. (2023). БОҒЧА ЁШИДАГИ БОЛАЛАРДА БИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 2(20), 26-29.
14. Muzaffar, G. (2023). Family Approach in PsychoCorrection of Disorders Identities of Patients with Schizophrenia. *Eurasian Medical Research Periodical*, 20, 243-247.
15. Dolimova, M. A., Agranovsky, M. L., Soliyev, D. M., & Gulomkodiroy, M. M. (2022). The role of maintenance therapy in comparative effectiveness of the quality and structure of remissions in recurrent schizophrenia. *Art of Medicine. International Medical Scientific Journal*, 2(1).
16. G'ulomqodirov, M. M. (2024). REMITTIRLASHGAN TIPDAGI KECHUVCHI SHIZOFRENIYANING UZOQ BOSQICHLARI: TIPOLOGIYASI, KLINIKO-PSIXOPATOLOGIK XUSUSIYATLARI, PROGNOZI, PROFILAKTIKASI. *IMRAS*, 7(6), 383-386.
17. Maxmit o'g, G. U. M. (2025). NEVROTIK DEPRESSIYA: KLINIK KO 'RINISHLAR, OLDINI OLISH VA DAVOLASH CHORALARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(36), 220-222.
18. Muzaffar, G. U. (2025). SHIZOFRENIYA KASALLIGI HAMDA UNING KELIB CHIQISH SABABLARI. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 4(41), 83-85.
19. Ibodullayevich, F. N., Al-Hussainy, A. F., H Tizkam, H., AbdulHussein, A. H., Salah, O. H., Edan, R. T., ... & Kamola Muminovna, A. (2024). Exploiting pH-Sensitive Polymer Micelles Nanoparticles for Paclitaxel Delivery and Tumor Suppression: Advanced Targeted Cancer Therapy. *Journal of Nanostructures*, 14(3), 945-952.
20. G'ulomqodirov, M. M., & Muradimova, A. R. (2025). INSULTDAN KEYINGI DEPRESSIV SINDROMNI KLINIK KO'RINISHI. *Журнал гуманитарных и естественных наук*, (24), 39-45.



21. Maxmit o'g, G. U. M. (2025). ALZGEYMER KASALLIGI: KLINIK-XUSUSIYATLARI, DIAGNOS TIZIMI VA DAVOLASHGA YONDASHUVLAR. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 4(40), 320-323.

22. Maxmit o'g, G. U. M. (2025). REAKTIV DEPRESSIYA: KLINIK KO 'RINISHLAR, SABABLARI VA DAVOLASH. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 3(35), 205-207.